



## “RAQAMLI DEMOKRATIYA SHAROITIDA FUQAROLARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI ISHTIROKINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI”

Po'latov Ro'zimurod Farhod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

polatovrozimurod6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20606677>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 09-iyun 2026 yil

### KEYWORDS

Raqamli demokratiya, elektron demokratiya, elektron ishtirok (e-participation), fuqarolik jamiyati institutlari, davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi, konstitutsiyaviy kafolatlar, elektron hukumat, jamoatchilik nazorati, elektron petitsiyalar, ochiq boshqaruv, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

### ABSTRACT

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning mazmunini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari natijasida fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki uchun yangi imkoniyatlar yuzaga kelib, demokratik institutlarning faoliyati zamonaviy texnologik vositalar bilan boyitilmoqda. Xususan, elektron hukumat, elektron murojaatlar, elektron petitsiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining onlayn muhokamasi hamda tashabbusli budjet mexanizmlarining joriy etilishi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokining yangi shakllarini vujudga keltirmoqda.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning mazmunini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari natijasida fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki uchun yangi imkoniyatlar yuzaga kelib, demokratik institutlarning faoliyati zamonaviy texnologik vositalar bilan boyitilmoqda. Xususan, elektron hukumat, elektron murojaatlar, elektron petitsiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining onlayn muhokamasi hamda tashabbusli budjet mexanizmlarining joriy etilishi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokining yangi shakllarini vujudga keltirmoqda.

Raqamli demokratiya, elektron demokratiya, elektron ishtirok (e-participation), fuqarolik jamiyati institutlari, davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi, konstitutsiyaviy kafolatlar, elektron hukumat, jamoatchilik nazorati, elektron petitsiyalar, ochiq boshqaruv, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi demokratik boshqaruv institutlarining mazmuni va shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada siyosiy va huquqiy fanlarda "raqamli demokratiya" tushunchasi keng qo'llanila boshladi. Mazkur tushuncha fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtirokini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida amalga oshirishga qaratilgan

demokratik mexanizmlar majmuini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda raqamli demokratiyaga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uni an'anaviy demokratiyaning yangi texnologik shakli sifatida baholasalar, boshqa olimlar raqamli demokratiyani fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishning mustaqil mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Xususan, raqamli demokratiya fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli demokratiyaning muhim tarkibiy elementlaridan biri elektron ishtirok (e-participation) hisoblanadi. Elektron ishtirok deganda fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'sir ko'rsatishi, qarorlar qabul qilish jarayonida qatnashishi hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi tushuniladi. Bunday ishtirok elektron murojaatlar, elektron petitsiyalar, onlayn muhokamalar, elektron ovoz berish va boshqa raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. Raqamli demokratiya konsepsiyasi fuqarolik jamiyatining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritishi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faol ishtirokini taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar esa ushbu ishtirokni ta'minlashning yangi va samarali vositalarini yaratmoqda. Shu sababli zamonaviy huquqiy davlatlarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish siyosati ko'pincha raqamlashtirish jarayonlari bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga muvofiq fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Mazkur norma fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishning asosiy konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi. Konstitutsiyada nazarda tutilgan mazkur huquq zamonaviy sharoitda nafaqat an'anaviy siyosiy institutlar, balki raqamli platformalar orqali ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishdagi ishtiroki, elektron petitsiyalar kiritishi yoki jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi konstitutsiyaviy huquqlarning raqamli shaklda ro'yobga chiqarilishining amaliy ko'rinishidir.

Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashning huquqiy asoslari bir qator maxsus qonunlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish shakllarini belgilaydi. Mazkur qonunda jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik monitoringi va jamoatchilik ekspertizasi kabi institutlar nazarda tutilgan bo'lib, ular raqamli texnologiyalar yordamida ham amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni davlat organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi. Mazkur qonunning asosiy maqsadi davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli demokratiya fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishning yangi bosqichini boshlab bermoqda. Biroq

elektron ishtirokning huquqiy tabiati, uning shakllari va kafolatlari amaldagi qonunchilikda alohida institut sifatida kompleks tartibga solinmagan.

Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Mazkur huquq orqali fuqarolar davlat hokimiyati faoliyatiga ta'sir ko'rsatish, jamiyat va davlat hayotiga oid masalalarni hal etishda qatnashish hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki xalq hokimiyatchiligi prinsipining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishning mustahkam huquqiy asoslarini yaratib bergan. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir muhim konstitutsiyaviy huquq murojaat qilish huquqidir. Konstitutsiyaning 55-moddasiga muvofiq har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Mazkur norma fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi muloqotning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi. Ayniqsa, elektron murojaatlar tizimining joriy etilishi ushbu huquqning amalda ro'yobga chiqarilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki axborot olish huquqi bilan ham uzviy bog'liqdir. Fuqaro davlat organlari faoliyati haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmas ekan, uning boshqaruv jarayonlaridagi ishtiroki samarali bo'lishi qiyin. Shu sababli Konstitutsiyada axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligining kafolatlanishi demokratik boshqaruvning muhim sharti sifatida e'tirof etilgan. Mazkur huquq raqamli demokratiya sharoitida ochiq ma'lumotlar bazalari, davlat organlarining rasmiy veb-saytlari va elektron axborot resurslari orqali amalga oshirilmoqda. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashning muhim huquqiy mexanizmlaridan biri jamoatchilik nazorati instituti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunida jamoatchilik nazoratining subyektlari, shakllari va asosiy prinsiplari belgilangan. Mazkur qonunning qabul qilinishi davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Qonunga muvofiq, jamoatchilik nazorati jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik monitoringi va jamoatchilik ekspertizasi kabi shakllarda amalga oshiriladi. So'nggi yillarda mazkur shakllarning elektron ko'rinishlari ham rivojlanib bormoqda. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining maxsus elektron platformalarda jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini kengaytirmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi rolini mustahkamlashda O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qonunda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Ijtimoiy sheriklik mexanizmlarining raqamli shakllarini rivojlantirish esa davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Davlat boshqaruvini raqamlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida ham o'z ifodasini topgan. Mazkur strategiyada davlat xizmatlarini raqamlashtirish, fuqarolarning davlat organlari bilan elektron muloqotini rivojlantirish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini

joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashning konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari izchil shakllantirilgan. Biroq elektron ishtirokning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, elektron petitsiyalar, elektron jamoatchilik nazorati va elektron muhokamalar bilan bog'liq munosabatlar turli normativ-huquqiy hujjatlarda tartibga solingan bo'lib, ular yagona tizimga keltirilmagan

Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi elektron ishtiroki bilan bog'liq munosabatlarni kompleks tartibga soluvchi alohida normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv raqamli demokratiya institutlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish, fuqarolarning elektron ishtiroki kafolatlarini mustahkamlash va amaldagi huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakatimizda elektron hukumat tizimi, "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portali, tashabbusli budjet loyihalari hamda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi platformalari fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashning muhim vositalariga aylanib bormoqda. Mazkur mexanizmlar fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, davlat boshqaruvi ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tadqiqot davomida elektron ishtirok bilan bog'liq ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, elektron ishtirok institutlarini tartibga soluvchi normalarning turli normativ-huquqiy hujjatlarda tarqoq holda joylashganligi, fuqarolarning raqamli savodxonlik darajasidagi tafovutlar, ayrim hududlarda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda elektron platformalar orqali ilgari surilgan tashabbuslarning amaliy ijrosi ustidan nazorat mexanizmlarining takomillashtirilishi zarurligi kuzatilmoqda. Shu sababli O'zbekistonda ham fuqarolarning davlat boshqaruvidagi elektron ishtiroki bilan bog'liq munosabatlarni tizimli ravishda tartibga solishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni. 12.04.2018-yil, O'RQ-474.
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni. 09.12.2015-yil, O'RQ-395.
4. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. 11.12.2003-yil, O'RQ-560-II.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. 25.09.2014-yil, O'RQ-376.
6. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni. 03.12.2014-yil, O'RQ-378.
7. Akmal Saidov. Inson huquqlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Adolat, 2020.
8. Odilqoriyev X.T.. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.